

“O‘ZBEKISTON STATISTIKA AXBOROTNOMASI”

ILMIY ELEKTRON JURNALI

2023
4 (17)-SON

statmirror.uz

UDK: 330.115:3303

KICHIK BIZNESDA XORIJIY INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Bayxonov Baxodir Tursunbaevich
*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti, Ds.prof.*
e-mail: b.bayxonov@tift.uz

Isakova Naima Ikromjonovna
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti doktoranti*
e-mail: n.isakova@tift.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada huddidlarda kichik biznesda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasi va mutaxassis olimlarning fikrlari o‘rganilgan. Tadqiqotlarda investitsiyalarni kichik biznes sub’ektlariga jalb qilish va undan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Iqtisodiyotga xavf ta’siri va uni bartaraf etish chora-tadbirlari tizimida kichik biznes sub’ektlariga investitsiyalarni jalb etishning takomillashtirilgan mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, investitsiya, raqobatbardoshlik, strategiya, inson kapitali, yuqori riskli loyihamalar.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется опыт развитых стран и мнения ученых-экспертов по эффективному использованию иностранных инвестиций в малом бизнесе в регионах. Исследованы возможности привлечения инвестиций в субъекты малого предпринимательства. Предложены системы мер по устранению влияния рисков на экономику и усовершенствованные механизмы привлечения инвестиций в субъекты малого предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, инвестиции, конкурентоспособность, стратегия, человеческий капитал, высокорисковые проекты.

ANNOTATION

The article examines the experience of developed countries and the opinions of academic experts on the effective use of foreign investments in small businesses in the regions. The possibilities of attracting investments in small business entities are investigated. Systems of measures to eliminate the impact of risks on the economy are proposed and mechanisms for attracting investments in small business entities are improved.

Key words: *small business, investment, competitiveness, strategy, human capital, high-risk projects.*

KIRISH

XX asrda jahoning etakchi mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy yo‘naltirilganligining ortib borishi jamiyat hayotidagi iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishgagina emas, balki ijtimoiy muammolarining hal etilishiga munosib hissa qo‘sha oladigan tadbirkorlik faoliyatining kichik biznes sohasi ahamiyatini ortishiga olib keldi. Shunga muvofiq rivojlangan mamlakatlar tajribasida kichik biznes sohasi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini muttasil oshirib borish kabi masalalarni hal etishga salmoqli, ijobiy ta’sir ko‘rsatishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, agar XX asrning 80-yillari AQShda 1,5 mln. kichik korxona faoliyat yuritgan bo‘lsa, ularning soni 2010 yilga kelib 7 mln.taga etdi. AQShda iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi bilan bog‘liq tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish davrida kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiyotni qayta qurishdagi asosiy omilga aylandi. Kichik korxonalar mamlakatdagi barcha innovatsiyalarning 55%dan ko‘proq qismini ta’minladi, bu sohada band bo‘lgan har bir xodimga to‘g‘ri keluvchi samara yirik korxonalardagidan ko‘ra ikki baravar ko‘proq bo‘lishiga erishildi[2]. Kichik biznes faoliyati ko‘lamlari kengayishi va samaradorligi yuksalishi dunyoning barcha mamlakatlarida zamonaviy tarkibiy o‘zgarishlarni olib borishdagi muhim va o‘ta dolzarb yo‘nalish sifatida o‘zini namoyish etmoqda.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash, erkinlashtirish, globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarini jahon xo‘jaligiga integratsiyasini jadallashtirish, aholining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirib borish uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, bozorgir mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni jadal yo‘lga qo‘ya oladigan kichik biznes sub’ektlarini shakllantirish zaruriyati kechiktirib bo‘lmaydigan muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Bu borada, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonda:

- mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollarini, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalgan etish choralarini ko‘rish;

- investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish;

- 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalg etish strategiyasini amalga oshirish;
- 2026 yilga borib tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish;
- hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish[1] bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ularning to'laqonli ado etilishi mamlakatimizdagi mavjud texnologik va moliyaviy rivojlanish darajasi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xorijiy investitsiyalar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalg etilishi masalasi o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning tarmoq sohalararo yo'nalishlari, jalg etilish shart-sharoitlari va samaradorligini mamlakatimizning alohida olingan hududlarida ham ilmiy tadqiq etib borilishi zaruriyati namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotga va uning tarkibiy qismi bo'lgan kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyatining turli jihatlari qator chet ellik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Xorijiy investitsiyalarni jalg etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari R.Vernon[3], A.Akamasu[4], K.Kodjima[5], E.Porter[6], K.Meyer[7], L.Krkosa[8], X.Tomann[9], J.Danning, R.Narulo[10] kabi etakchi xorijilik olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Rivojlanayotgan davlatlarda xorijiy investitsiyalarning kichik biznes sohasida shakllanishi va rivojlanishi masalalari rus olimlaridan A.A.Agafonov[11], V.K.Bugaev[12], F.S.Tumusov[13], L.V.Davydova, S.V.Ilminskaya[14], Ye.Kocherin[15], M.S.Ilyasov[16], O.V.Fadeeva[17], V.K.Spilnichenko va L.A.Sarkisyan[18]larning ilmiy ishlarida asoslab berilgan. O'zbekiston va uning hududlari iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalg etish, undan samarali foydalanishning nazariy-amaliy jihatlari A.V.Vaxabov[19], Sh.G.Yuldashev[20], R.Z.Yuldashev[21], B.T.Bayxonov[22], N.G.Karimov[23], D.D.Rustamova[24], E.A.Maxmudov[25] va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot ishlarining talaygina qismi xorijiy investitsiyalarni mazmuni, mohiyati va uni milliy iqtisodiyotning kichik biznes sohasiga jalg etish masalalariga qaratilgan. Biroq, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg etishda kichik biznesning o'ziga xos jihatlariga oid alohida tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqotni bajarishga asos bo'lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tanlanma, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish va aniqlangan model yordamida prognozlash, so'rov hamda SWOT-tahlil usullaridan foydalilanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesga xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ilmiy tadqiq etishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ni iqtisodiyotga jalb etish nazariyalariga tayanish xorijiy investitsiyalar orqali samarali iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini oydinlashtirib olishga yordam beradi. Bizning fikrimizcha, TTXIga oid nazariy konsepsiylar transmilliy korporatsiyalarning xalqaro investitsiya faoliyati va ularning milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ta’sirini asoslashga imkon beradi. TTXI to‘g‘risidagi nazariyalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular bizga nima uchun potensial xorijiy investorlar investitsiyalashda ma’lum bir mamlakatni yoki hududni tanladi va u yoki boshqa shakldagi investitsiyani amalga oshirdi kabi savollarga asosli javob olishga imkon beradi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, xorijiy investitsiyalarga keng yo‘l ochish, qonunchilik barqarorligini ta’minalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish, investitsiyaviy muhitni tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar respublika sanoat hamda boshqa tarmoqlarini tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan Davlat dasturlari investitsiyalar hajmini oshishida muhim omil bo‘lmoqda. Muallif tomonidan dissertatsiya ishida iqtisodiyotga xavf ta’siri va uni bartaraf etish chora-tadbirlari tizimida kichik biznes sub’ektlariga investitsiyalarni jalb etishning takomillashtirilgan mexanizmlari taklif etildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda ushbu zanjirni o‘z vaqtida uzish bo‘yicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu borada ayniqsa, kichik biznes sohasiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishi uchun mamlakatimizda anchagina samarali mexanizmlar yaratilgan bo‘lib, ularda investitsiyalarning turli shakllariga yo‘l ochib berilayotganligi bayon etilib, bu mexanizmlar investitsiyalar turli shakllari oqimini ta’minlovchi choralar, harakatlar, qoidalari, tizimlar, tuzilmalar yig‘indisidan iboratligi asoslandi. Mazkur mexanizm birinchi navbatda davlat hokimiyyati ishlab chiqadigan investitsiyalarni jalb etish dasturlari amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi.

Fikrimizcha, kichik biznesga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi mexanizmlarida uch yo‘nalishni o‘zaro farqlash lozim:

1. Moliyalashni ta’minlovchi mexanizmlar.
2. Investitsiyalar oqimiga ko‘maklashuvchi infratuzilmaviy hamkor tashkilotlar.
3. Alovida hududlar va tarmoqlarga investorlarni jalb etuvchi, davlat tomonidan amalga oshiriladigan rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar, imtiyozlar va kafolatlar.

Moliyalashni ta’minlovchi mexanizmlar. Ularga aksiyalashtirish (kichik biznes subektlari tomonidan qimmatli qog‘ozlar emitentlik huquqini berish, ular ixtiyoridagi nomoddiy aktivlar qiymati darajasidagi kredit olish yoki garovga qo‘yish), loyihiy moliyalash (kichik biznes sub’ektlarining investitsion loyihalaring bir qismini davlat – xususiy sheriklik asosida davlat tomonidan

to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish), vechur moliyalash (milliy va hududiy vechur kompaniyalarini tashkil etish, bugungi kunda bunday tuzilmalar soni mutloq kam) va davlat byudjetidan moliyalashtirish kiradi.

Investitsiyalar oqimiga ko‘maklashuvchi infratuzilmaviy hamkor tashkilotlar. Bular jumlasiga tijorat banklari va nobank kredit muassasalari, investitsion fondlar, maqsadli jamg‘armalar, notijorat tashkilotlari va assotsiatsiyalar (Savdo-sanoat palatasi, «Tadbirkor ayol», «Hunarmand» uyushmasi, turli tarmoqlarga mansub mahsulot ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyalari va boshq.), konsalting firmalari kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, Tashqi ishlar hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirliklari, mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixona va vakolatxonalar zimmasiga xorijiy investorlar bilan ishlash majburiyati yuklatilganligi ham tashqi aloqalarga tortilish geografiyasi va ko‘لامи cheklangan kichik biznes sohasiga TTXIIlarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikada mashina, uskuna, inventar sotib olishga investitsiyalar 2010 yilda 37,8 foizdan 2022 yilga kelib 53,4 foizga o‘sgan bo‘lsa, viloyatda 21,4 foizdan 71,7 foizga yoki tahlil qilinayotgan ko‘rsatgich 3 barobardan ko‘proq o‘sishga erishilgan. Ushbu o‘sish viloyatda qurilish montaj ishlari salmog‘ining 73,0 foizdan, 25,0 foizga pasayishi hisobiga yuz berdi. Mazkur holat viloyat iqtisodiyotining real sohasi korxonalarini modernizatsiyash, texnik va texnologik qayta jihozlash nuqtai nazaridan ijobjiy holat hisoblanadi. Shu bilan birga kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb topdik:

- riskli texnologik o‘zgarishlarni amalga oshirayotgan va innovatsion faoliyatni tashkil etayotgan kichik biznes sub’ektlarini soliqqa tortishning past darajasini belgilash va soliq ta’tillarini berish orqali moliyaviy holatini yaxshilash uchun imkoniyat yaratish;
- yuqori riskli loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlarining maxsus tizimini yaratish;
- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarining bir qismini tez qoplaydigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan kichik biznes ob’ektlariga yo‘naltirish;
- texnologik asbob-uskunalarni zamon talablariga moslashtirish maqsadida xo‘jalik sub’ektlari vakillarining xalqaro ko‘rgazma-savdolarda ishtiroy etishini ta’minalash, tejamkor texnologiyalarni tanlash va ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash. Olib borilgan tahlillarga ko‘ra, tartibga solish rejimining erkinlashtirilishi, tariflarning pasaytirilishi, iqtisodiyotning telekommunikatsiyalar, sug‘urta, bank xizmatlari, savdo, logistika va boshqa tarmoqlari uchun investitsiyalarga cheklovlarining olib tashlanishi faqat yirik korxonalargagina emas, balki kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga ham yo‘l ochib berdi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi kengayishini ta’mnladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish uchun katta imkoniyat va yuqori salohiyatga ega ekanligi aniqlandi. Fikrimizcha, kichik biznesga xorijiy investitsiyalar jalb etilishi mexanizmlarida uch yo‘nalishni farqlash lozim:

- moliyalashni ta‘minlovchi mexanizmlar. Ularga aksiya, obligatsiya, loyihaviy moliyalash, vechur moliyalash va davlat byudjetidan moliyalashtirish kiradi;

- investitsiyalar oqimiga ko‘maklashuvchi tizimlar va tashkilotlar. Savdosanoat palatasi va turli tijorat, notijorat tashkilotlari shular jumlasidandir;

- alohida hududlar va tarmoqlarga investorlarni jalb etuvchi davlat dasturlari, chora-tadbirlari, imtiyozlari, kafolatlari va qulayliklari. Shuningdek, respublika hududlarida qo‘shma korxonalar investitsiyaviy faoliyatini moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlashda muayyan o‘zgarishlarni amalga oshirish zarur. Ular:

birinchidan, qo‘shma korxonalarga investitsiya kiritilishida aholining bo‘sh pul mablag‘laridan unumli foydalangan xolda ishtirokini jadallashtirish lozim. Bu bir vaqtning o‘zida bir necha bir-biri bilan bog‘liq muammoni hal etishga olib keladi. Xususan, aholi korxonalar aksiya va obligatsiyalarini xarid qilish asosida asosiy daromad manbaiga qo‘srimcha dividend yoki foizlar olib, turmush farovonligini yanada yaxshilaydi. Kopxonalar esa, xatarlilik darajasi minimum bo‘lgan qo‘srimcha moliyaviy manbalarga ega bo‘lib, investitsiyaviy faolligini yanada oshirishga muvaffaq bo‘ladi;

ikkinchidan, korxonalar investitsiyaviy faoliyatida tijorat banklari resurslarining ulushini oshirish maqsadga muvofiq. Buning uchun uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik investitsiyaviy loyihalarni kreditlashtirish uchun imtiyozli kreditlar berish mexanizmini ishlab chiqish lozim. Bu tadbir ham bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklarga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063#5844066>

2. Гражданкин В.А., Гражданкина О.А. Практика государственной поддержки малого и среднего предпринимательства в США и странах Европейского союза. – М. [хттп://сайберленинка.ру/артиcle/н/практика-государственной-поддерзки-малого-и-среднего-предпринимательства-в-сша-и-странах-европейского-союза](http://сайберленинка.ру/артиcle/н/практика-государственной-поддерзки-малого-и-среднего-предпринимательства-в-сша-и-странах-европейского-союза).

3. Vernon, R. International Investment and International Trade in the Product Cycle / R. Vernon // The Quaterly Journal of Economics. – London, 1966. – Vol. 80 (2). – P.253.

4. Akamatsu K.A. Historical Pattern of Growth in Developing Countries / K.A. Akamatsu // The Developing Economies. – 1962, March- August. – Vol. 1.
5. Kojima K. Micro and Macro- economic Models of Direct Foreign Investment: Toward a Synthesis / K. Kojima, T. Ozawa // Hitotsubashi Journal of Economics. – 1984. - №.25 –P. 11-20.
6. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: The Free Press, 1990. – 255 pp.
7. Meyer K., Pind C. The slow growth of foreign direct investment in the Soviet union successor states // The economics of transition. - London, 1999. – Volume 7, 305 pp. 201-214.
8. Krkosa L. FDI financing of capital formation in Central and Eastern Europe. – London: EBRD working paper No. 67, 2001. - 20 p.
9. Томанн Х. Прямые иностранные инвестиции в переходный период экономики. – Берлин, 2004. – S.16.; 10. 10. Dunning J., Narullo R. Trade, location of economic activity and the MNE: a search for an eclectic approach. // The International Allocation of Economic Activity / Edited by B.Ohlin and P.O. Hesselborn. – London: Macmillan, 1977. - pp. 395-418;
11. Агафонов А.А. Проектное финансирование как форма инвестиционного кредитования малого бизнеса / А.А. Агафонов // Экономика и предпринимательство.- 2014.- №5- ч.1.- С. 711.
12. Бугаев В.К. Системные свойства региона Регионология №2-2008.-С.10-11.
13. Тумусов Ф.С. Инвестиционные потенциал региона: теория проблема, практика. М.: «Економика», 1999. -С.12.
14. Давыдова Л. В., Илминская С.В. Формирование стратегии развития инвестиционного потенциала региона на основе отсечки инвестиционных протесссов //Региональная экономика: теория и практика. - №1 (40). - 2007. - с 17.
15. Кочерин Е. Инвестиции: Политика и стратегия для СНГ инвестиции в России №2. 2002.; Вдовенко З. Политика промышленного развития в регионе. Экономист. №3 – 2005. –С.67-73.
16. Ilyasov M. S. Osobennosti razvitiya vnesheekonomiceskoy deyatelnosti sub'ektov malogo biznesa zarubejnyx stran i Rossii na sovremennom etape. Diss. kand. ekon. nauk. – Moskva: 2004.
17. Fadeeva O.V. Malyy i sredniy biznes v sisteme vnesheekonomiceskix svyazey Rossii. Diss. kand. ekon. nauk. – Moskva: 2011.
18. Spilnichenko V.K., Sarkisyan L.A. Sravnitelnoe xarakteristika razvitiya malogo i srednego biznesa v Rossii i v stranax uchastnikax SNG // Ekonomika i predprinimatelstvo, 2016, № 11-2(76), S. 358-364.
19. A.V.Vaxobov, Sh.X.Xajibakiev, N.G. Muminov Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2010. – 10 b.
20. Sh.G‘. Yuldashev Inostrannye investitsii kak faktor ekonomicheskogo rosta i liberalizatsii natsionalnogo vosproizvodstva Respublikи Uzbekistan.

Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomiceskix nauk. – T.: 2001. – 37 s.

21. R.Z.Yuldashev Sovershenstvovanie upravleniya investitsionnym obespecheniem privatizirovannyx predpriyatiy Uzbekistana. Monografiya. T.: 2009. – 210 s.

22. B.T.Bayxonov O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashadirish uslubiyatini takomillashtirish: Iqtisod fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. 14 b.

23. N.G.Karimov Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari: Iqtisod fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2007. 40 b.

24. D.D.Rustamova Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo‘nalishlari: Iqtisod fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006. – 23 b.

25. Maxmudov E.A. Pryamye inostrannye investitsii v ekonomiku Uzbekistan: dostijeniya, problemy i perspektivy. – Tashkent: 2007.